

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOTLAR ORQALI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

Narbayeva Gulasal Bagtibay qizi

UrDPI Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Bog'ibekova Hulkaroy Mirzabek qizi

UrDPI Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'yin mashg'ulotlarini o'tkazishda inerfaol metodlardan foydalanish orqali bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlari: ijodiy o'yinlar, ko'rgazmalilik, syujetli-rolli o'yinlar, pedagogik texnologiya, qurish, dramalashtirish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Negaki, bolaning 5-7 yoshgacha bo'lgan davrida uning ongida zarur bo'lgan 70-75% axborot shakllanadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlaridan mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish, bolalarni mashg'ulotlarga qiziqitira olish katta ma'suliyat talab qiladi. Mashg'ulotlar davomida turi xil qiziqarli o'yinlardan foydalanish orqali bolalarni jalb qila olish mumkin.

Mashg'ulot ta'lim muassasida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. Mashg'ulot – pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq-hisob

harakatlari kabi turli tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim tashkilotsida ta'limni tashkil etish shaklidir.

Ta'lim shakli deganda ta'lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladi.

Ta'lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyatiga, o'tkazish joyiga shuningdek kun tartibida egallagan o'rniga qarab bir-biridan farq qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotsida ta'limning frontal (umumiy), jamoaviy va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta'lim berish ishlari ekskursiya, didaktik o'yinlar orqali, kun davomida bolalarning mashg'ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o'yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriladi.

Mashg'ulot maktabgacha ta'lim yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

Mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta'lim berish natijasida bilimga qiziqishlar rivojlana boradi.

Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topog'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar oldiga umumiy zo'r berishning talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi, jamoatchilik xissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-o'yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning birlashgan do'stona jamoasini yaratishga yordam beradi. Mashg'ulotda ta'lim berish orqali bolalarda maktabdagi o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik xissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to'g'ri sifatlar hosil qilinadi.

Bolalarni maktab ta'limiga ruhiy jihatdan tayyorlashni ularning boshlang'ich sinflarda dastur materialni yaxshi o'zlashtirib olishlarini ta'minlovchi bilim va malakalar mashg'ulotlar jarayonida xosil qilinadi.

Quyida ana shunday qiziqarli mashg'ulotlardan namunalar keltirib o'tamiz:

O'yinlarga asoslangan mashg'ulot. Bog'cha tarbiyalanuvchilarini o'qitishdagi eng qiyin vazifa bu guruhda tartib-intizomni saqlashdir. Bolalarni bo'ysundirish va yaxshi tarbiyachi bo'lish o'rtasidagi muvozanatni saqlashning eng zo'r usuli bu mashg'ulotlarda turli o'yinlardan foydalanishdir. Ana shunday o'yinlardan biri bu "Telefon" o'yinidir. Bunda bolalar bir qator bo'lib turib olishadi. Birinchi turgan bolaning qulog'iga tarbiyachi yangi o'rganilgan so'zlardan birini aytadi, u bola esa ikkinchi turgan bolaning qulog'iga eshitgan so'zini shivirlab aytadi. Bu holat toki oxirgi bolakay nima eshitganini ovoz chiqarib aytgunicha davom etadi. O'yin shunisi bilan qiziqarlilik, oxirgi so'z juda qiziqarli, odatda asl so'zdan butunlay farq qiladi. Bu kulguli va quvnoq vaziyatni yuzaga keltirib, bolalarning kayfiyatini ko'taradi.

She'rlar va qo'shiqlardan foydalanish. Bog'cha tarbiyalanuvchilari ona tilidagi grammatik qoidalar va yozuv me'yorlarini o'zlashtirishi shart emas albatta. Ular faqat so'zlarning talaffuzi hamda ma'nosini yaxshi o'zlashtirishsa bo'lgani. Bunda esa bizga qo'shiqlar va she'rlar yordam beradi. Bolalar uchun she'r va qo'shiqlar hozirda bir qator internet saytlarida ham joy olgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz ham lozimki, animatsion shakldagi videoroliklardan ham mashg'ulot mobaynida foydalanilsa, o'z samarasini bermay qolmaydi. Masalan, bolalarga: O'zbekiston Ona yurt,

Dunyoda bir dona yurt.

Xalqim tanti mehnatkash,

Do'stlikda yagona yurt.

She'rini o'rgatish va uni kuyga solib qo'shiq qilib kuylatish ham mumkin.

Musiqiy tanaffus. Bolalar biror mashg‘ulotni tugatgach ular bilan dam olish daqiqasi, ya’ni musiqiy tanaffus qilish mumkin. Bunda biror bola yoshiga mos musiqa yoki qo‘shiq qo‘yiladi, qo‘shiq bo‘layotgan paytda “Qaynoq kartoshka” o‘yinini o‘ynashlari ham mumkin. Buning uchun bir kichkina koptok kerak bo‘ladi. Qo‘shiq ketayotgan paytda bolalar koptokni, ya’ni qaynoq kartoshkani bir biriga irg‘itishadi. Musiqa to‘xtagan paytda koptokcha kimda qolgan bo‘lsa, shu bolakay biror she’r yoki topishmoq aytishi lozim bo‘ladi. Masalan: Qat-qat qatlama, aqling bo‘lsa tashlama (kitob). Boshqa bolalar buning javobini topishadi va o‘yin shu tarzda davom etadi.

Xullas, bollarni maktabga tayyorlash, ularda insoniy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda mashg‘ulotlarning ahamiyati katta. Bunda biz qiziqarli o‘yinlardan foydalansak, ishimiz yanada yengil kechib, yaxshi natija beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. T.: “O‘zbekiston” 2018.
2. Tolipov O‘, Usmonbekova M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T.: “Fan”, 2005.